

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**SUYUNOV SHAXZOD SHOVIKAT O‘G‘LI**

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI, ULARNING ANALOGLARI YOKI  
PSIXOTROP MODDALARNI O‘TKAZISH MAQSADINI KO‘ZLAMAY  
QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, EGALLASH, SAQLASH  
VA BOSHQA HARAKATLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI  
TERGOV QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Suyunov Shaxzod Shovkat o‘g‘li**

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish..... 3

**Сууюнов Шахзод Шовкат угли**

Совершенствование расследования преступлений, связанных с незаконным изготовлением, приобретением, хранением и другими действиями с наркотическими средствами, их аналогами или психотропными веществами без цели сбыта..... 25

**Suyunov Shaxzod Shovkat o‘g‘li**

Improvement of the investigation of crimes related to the illegal manufacture, possession, storage, and other actions of narcotic drugs, their analogues, or psychotropic substances without the intent to sell..... 47

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 52

**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**SUYUNOV SHAXZOD SHOVIKAT O‘G‘LI**

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI, ULARNING ANALOGLARI YOKI  
PSIXOTROP MODDALARNI O‘TKAZISH MAQSADINI KO‘ZLAMAY  
QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, EGALLASH, SAQLASH  
VA BOSHQA HARAKATLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI  
TERGOV QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1110 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aliyev Shuxrat Xasanovich**

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidov Baxrom Anvarovich**

yuridik fanlar doktori, professor

**Kadirova Moxigul Xamitovna**

yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
huzuridagi Tergov departamenti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-iyun kuni soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz).)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD1586-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-iyundagi 19-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha (PhD) falsafa  
doktori, dotsent

**Sh.A. Kulmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish jinoyatlariga qarshi kurashish, jamiyatda ushbu illatga qarshi immunitetni shakllantirish orqali inson salomatligini ta'minlashga obyektiv zarurat tariqasida qaraladi. BMTning 2024-yildagi ma'lumotlari ko'ra, 15-64 yosh oralig'ida bo'lgan har 18 kishidan bittasi oxirgi 12 oy davomida hech bo'lmaganda bir marotaba giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan<sup>1</sup>. So'nggi 10 yilda giyohvand moddalar iste'mol qiluvchilarning soni 23 foizga ortib, 296 mln. nafarga yetgan<sup>2</sup>. AQSHda 37 foiz, Kanadada 30 foiz, Kanada 27 foiz yoshlar surunkali giyohvandlikdan aziyat chekadi<sup>3</sup>. Bu giyohvandlik vositalarining yangi turlarini tadqiq etish, ularni inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanib, yashirin tarzda tarqatish (zakladka) hamda narkojinoyatlar yo'nalishida transmilliy uyushgan jinoyatlarni tergov qilish sifatini oshirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, jumladan ularni o'tkazish maqsadini ko'zlamasdan qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylangan. Xususan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga barham berish, mazkur turdagi jinoyatlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini aniqlash, ishni sudga qadar yuritishda tergov harakatlarini o'tkazishning taktikasini takomillashtirish, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda hamkorlik qilgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha eng samarali yondashuvlarni belgilashga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish jinoyatlarini fosh etish va tergov qilish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 – 2028-yillarga mo'ljallangan" Milliy strategiyasida<sup>4</sup> giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa internet tarmog'idagi usullariga barham berish, tergov harakatlarini o'tkazishning kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish, giyohvandlik vositalarini miqdoriy jihatdan aniqlovchi maxsus texnik vositalardan foydalanish kabi bir qator vazifalar belgilangan. Bu esa, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarini tergov qilishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/world-drug-report-2024.html>

<sup>2</sup> [https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23\\_Exsum\\_fin\\_SP.pdf](https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23_Exsum_fin_SP.pdf)

<sup>3</sup> <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/drug-use-by-country>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/6912475>

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni (1999), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6041-son (2020), “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-60-son (2022), “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-son Farmonlari (2024), “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4818-son (2020) Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, prekursorlar, kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar hamda valyuta namunalari ekspress tekshirish jarayonida texnik vositalardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 12-son qarorlari (2023) hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish va fosh etishning ba‘zi jihatlarini mamlakatimiz olimlari G‘.A. Abdumajidov, Sh.X. Aliyev, I.R. Astanov, M.D. Botayev, S.N. Gordeev, Sh.O. Matyozov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, A.M. Payziyev, Yu.S. Pulatov, B.A. Rajabov, A.X. Raxmonqulov, G.Z. To‘laganova, A.O. Sharafutdinovlar tomonidan o‘rganilgan hamda ushbu jinoyatga qarshi kurashish, uning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini R. Kabulov, M.M. Kodirov, A.A. Otajonov, M. Palvanov, A.A. Rasulev, M.X. Rustamboyev, X.D. Tadjibayev, F. Toxirov, B.A. Umarova, M.K. Uteniyazov, A.G. Zakirova, M.Q. O‘razaliyevlar tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy ishlar va darsliklarda ayrim mulohazalar ilgari surilgan.

MDHga a‘zo davlatlarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni saqlash jinoyatining tergov qilishdagi o‘ziga xos xususiyatlar, uning nazariy asoslari, kriminalistik tavsifi, ushbu jinoyatlarni samarali tergov qilish uchun hamkorlik qilishga doir masalalar D.N. Alekseev, R.S. Belkin, V.K. Gavlo, I.F. Gerasimov, G.A. Gustov, L.Y. Drapkin, A.P. Ivanov, S.N. Kozlov, V.V. Petrov, I.I. Sidorov, Y.V. Smirnovalar tomonidan ma‘lum darajada tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Shunday bo‘lsada, bugungi kunga qadar giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘rgazmali reklama (narkograffiti) va “zakladka” usuli bilan tarqatilishining oldini olish, shaxsiy tintuv o‘tkazish va olib qo‘yilgan giyohvandlik

---

<sup>5</sup> Mazkur olimlarning ishlarini to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

moddalarini o'rash (qadoqlash), muhrlash va saqlash tartibi hamda ularning miqdorini aynan shaxsiy iste'mol uchun ekanligini aniqlash metodikasini ishlab chiqish, giyohvandlik vositalariga dastlabki baho beruvchi ekspress-test analizatorlaridan foydalanish, ushbu turdagi jinoyatlar yuzasidan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini aniqlash va ular bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligini (algoritmi) ishlab chiqish, jinoyatlar haqida ma'lumot bergan yoki aniqlashda ko'maklashgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash va ularni rag'batlantirish bilan bog'liq umumnazariy va amaliy tusdagi masalalar maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" (2022-2024) mavzusidagi loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning taktikasi hamda metodikasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasining huquqiy tahlilini amalga oshirish;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi va uning elementlarini belgilash;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini aniqlash;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha o'tkazilishi zarur bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi)ni ishlab chiqish;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishga doir ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganib, ularni sud-tergov amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishga doir qonunchilikdagi bo'shliqlarni

bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli tahlil, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi materiallari hamda sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarning faqat bir qismi o'tkazilib, qolgan qismi keyinchalik dastlabki tergov davomida aniqlangan holatlarda, jinoyat ishi doirasida olib borilgan tergov harakatlari natijalari bo'yicha shaxsda mazkur vosita va moddalarni o'tkazishga nisbatan qasd mavjudligini isbotlashning imkoniyati bo'lmasa, u(lar)ning harakatlariga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish bilan birga, qonunga xilof ravishda saqlash jinoyatlari uchun alohida-alohida holda huquqiy baho berish zarurati asoslantirilgan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning miqdoriy tasnifi hamda ularni o'tkazishga qasd mavjud yoki mavjud emasligi masalasini isbotlashda respublikada yagona amaliyotni joriy etish maqsadida tergov organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli qaroriga ilova qilingan miqdoriy me'yorlardan kelib chiqib, jinoyat ishi materiallari bo'yicha shaxslarga ayblov e'lon qilishi lozimligi asoslantirilgan;

tergovga qadar tekshiruv yoki tergov davomida ekspertiza tayinlangunigacha yoxud ekspertiza xulosasi olingunga qadar giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlar muhrlangan holda tegishlilik bo'yicha Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning saqlash xonasida faqat maxsus seyflarda saqlanishi shart ekanligi asoslantirilgan;

tergovga qadar tekshiruv bosqichida ekspres tekshirish texnik vositasi orqali aniqlangan giyohvandlik vositasi, ularning analoglari, psixotrop modda namunasining tekshiruv natijasi vakolatli xodim tomonidan o'zida (kiyimida), yonida yoki uyida giyohvandlik moddasi topilgan shaxsga, xolislarga va ekspres tekshirish davomida ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga barcha eshita oladigan shaklda, tushunarli tarzda e'lon qilishi va ko'rsatishi lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid

jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadisiz qonunga xilof ravishda "egallash" va "saqlash" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

internetning ijtimoiy tarmoqlari, xususan "Telegram", "Instagram", "Odnoklassniki" va "Facebook" platformalaridan foydalangan holda giyohvandlik vositalari sotilayotgan ijtimoiy tarmoqlarni aniqlash va ularni fosh etish bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari tomonidan o'tkazilishi lozim bo'lgan harakatlar algoritmi ishlab chiqilgan;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv vaqtida olinadigan tushuntirish xatlarining namunasi va ularning mazmunida aks ettirilishi lozim bo'lgan holatlar doirasi ishlab chiqilib, mazkur jarayon videoyozuvda to'liq qayd etilishi lozimligi asoslantirilgan;

o'tkazilgan tergov harakatlari davomida olib qo'yilgan yoki taqdim etilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'qolishi, shikastlanishi, bir-biriga qo'shib yoki aralashib ketishining oldini olish maqsadida vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ularni o'rnatilgan tartibda o'rash (qadoqlash) va muhrlash tartibi ishlab chiqilgan;

jinoyatlarni issiq izidan ochish va qo'lga olingan shaxslarning yonidan topilgan uyali aloqa vositalarining bulutli xotirasida bo'lgan ko'rgazmali reklama (narkograffiti) va zakladka manzillari hamda ish uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tashqi ta'sirlar natijasida o'chirib yuborilishining oldini olish maqsadida uyali aloqa vositalarida zudlik bilan "aviarejim" holatiga o'tkazish va "faradey qop"lariga joylashtirish hamda ular bo'yicha sud kompyuter-texnik ekspertizasini tayinlash zarurati asoslantirilgan;

bugungi kunda tayinlangan sud-kimyoviy ekspertizalarning xulosasini olish uchun o'rtacha 10-15 kun vaqt talab etilayotganligi, o'z navbatida ushbu turdagi ekspert xulosasini olmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emasligi hamda tergovga qadar tekshiruvda shaxsni ko'pi bilan faqat 48 soatgacha ushlab turish mumkinligi inobatga olinib, huquqni qo'llash amaliyotida ekspress tekshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ekspress tekshiruv natijasi bo'yicha tayyorlangan ma'lumotnoma jinoyat ishini qo'zg'atish va shaxsni ishga gumon qilinuvchi tariqasida jalb etish uchun asos sifatida xizmat qilishi hamda har bir tuman Ichki ishlar bo'limlarini ekspress tekshirish uchun texnik vositalar bilan ta'minlash lozimligi asoslantirilgan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash va saqlash jinoyati yuzasidan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi aniqlanib, ular bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan;

ijtimoiy tarmoqlarda reklama sifatida inson qo'lida aks ettirilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning fotosurati namoyish etilgan har bir holat yuzasidan shaxsning barmoq izlari orqali uning shaxsini aniqlash maqsadida majburiy tartibda daktiloskopiya ekspertizasini tayinlash amaliyotini yo'lga qo'yish zarurati asoslantirilgan;

shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan yoki qilmaganligi, shuningdek iste'mol qilgan moddalarning turlari va vaqt oralig'ini

aniqlash maqsadida, o‘rnatilgan tartibda uning soch tolalaridan namuna olish va ular bo‘yicha sud-kimyoviy ekspertiza tayinlash amaliyotini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tintuv (shaxsiy tintuv) tergov harakatini o‘tkazishda kinologiya xizmati imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurati asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert kriminalistika bosh markazida o‘tkazilayotgan sud-kimyoviy ekspertiza tadqiqotlari orqali neytral modda (to‘ldiruvchi) bilan aralashmada bo‘lgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni aniqlash hamda aniqlangan moddalarning miqdoriga to‘liq oydinlik kiritish mumkinligi asoslantirilgan;

tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Foiz nisbati” metodikasi yordami bilan aralashmada bo‘lgan turli xildagi giyohvandlik vositalari va(yoki) psixotrop moddalar miqdorini bir-biriga qo‘shib hisoblash va ularning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda shaxs(lar)ni javobgarlikka tortish masalasini hal etish zarurati asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlarning qonunni qo‘llash amaliyotidagi ilg‘or tajribasi, sotsiologik tadqiqotlar (anketa so‘rovi, intervyu olish) hamda statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tgan tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan, dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi, Oliy sudi ma‘lumotlaridan foydalanilgan, o‘rganilayotgan institutni yanada takomillashtirish istiqbollari o‘id masalalar bo‘yicha 724 ta tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalari, shuningdek 2019-2024-yillarda yuritilgan 300 ta jinoyat ishi va chiqarilgan sud hukmlari o‘rganilib, natijalari umumlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash amaliyoti, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek “Tergovga qadar tekshiruv”, “Jinoyat huquqi”, “Jinoyat-protsessual huquq”, “Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish”, “Tergov faoliyati” va “Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi” hamda “Kriminalistik taktika va metodika” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda namoyon bo‘ladi, tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida ishni sudga qadar yuritishda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarini tergov qilishga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga bag‘ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarini tergov qilish faoliyatini tartibga soluvchi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishiga, shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi subyektlarning faoliyatini takomillashtirishga

qaratilgan qonun hujjatlari va chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilishida foydalanilishi mumkinligida ko‘rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarning faqat bir qismi o‘tkazilib, qolgan qismi keyinchalik dastlabki tergov davomida aniqlangan holatlarda, jinoyat ishi doirasida olib borilgan tergov harakatlari natijalari bo‘yicha shaxsda mazkur vosita va moddalarni o‘tkazishga nisbatan qasd mavjudligini isbotlashning imkoniyati bo‘lmasa, u(lar)ning harakatlariga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan birga, qonunga xilof ravishda saqlash jinoyatlari uchun alohida-alohida huquqiy baho berish lozimligiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 9-sonli qarorining 39-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 19-apreldagi 08/263-23-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi bu turdagi jinoyat ishlarini samarali tergov qilishda surishtiruvchi, tergovchilar tomonidan ishni to‘g‘ri malakalashlariga xizmat qilgan;

giyohvandlik vositasi, ularning analoglari yoki psixotrop moddani muayyan miqdorga mansubligi masalasini hal etish tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari vakolatiga tegishli bo‘lib, ular bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida” 330-sonli qarori bilan tasdiqlangan ilovalarda ko‘rsatilgan miqdorlarga amal qilishlari zarurligiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 9-sonli qarorining 39-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 19-apreldagi 08/263-23-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi bu turdagi jinoyat ishlarini samarali tergov qilishda ularga to‘g‘ri huquqiy baho berishga xizmat qilgan;

tergovga qadar tekshiruv yoki tergov davomida ekspertiza tayinlangunigacha yoxud ekspertiza xulosasi olingunga qadar giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlar muhrlangan holda tegishliligi bo‘yicha Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning saqlash xonasida faqat maxsus seyflarda saqlanishi shart ekanligiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021-yil 29-avgustdagi 60-QQ-son, Oliy sudning 2021-yil 25-avgustdagi 16/707-21-son, Davlat xavfsizlik xizmatining 2021-yil 23-avgustdagi 35/5211-son, Ichki ishlar vazirligining 2021-yil 29-avgustdagi 55qq-son, Mudofaa vazirligining 2021-yil 19-avgustdagi 32-son, Davlat bojxona qo‘mitasining 2021-yil 21-avgustdagi 01-02/22-40-son, Davlat soliq qo‘mitasining 2021-yil 29-avgustdagi 2021-35-son bilan tasdiqlangan “Surishtiruv, dastlabki tergov

va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorining 23-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 16-maydagi 01/249-23-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi bu turdagi jinoyat ishlari tergov qilishda aniqlangan ashyoviy dalillarni saqlash bilan bog'liq masalalarga xizmat qilgan;

tergovga qadar tekshiruv bosqichida ekspress tekshirish texnik vositasi orqali aniqlangan giyohvandlik vositasi, ularning analoglari, psixotrop modda namunasi tekshiruv natijasi vakolatli xodim tomonidan o'zida (kiyimida), yonida yoki uyida giyohvandlik moddasi topilgan shaxsga va ekspress tekshirish davomida ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga barcha eshita oladigan shaklda, tushunarli tarzda e'lon qilishi va ko'rsatishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-yanvardagi 12-son qarori bilan tasdiqlangan "Tezkor qidiruv tadbirlarini o'tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, prekursorlari, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda valyuta namunalarini ekspress tekshirish jarayonida texnik vositalardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomning 2-bobining 10-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-apreldagi №12-15-33-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi bu turdagi jinoyat ishlarini samarali tergov qilishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda aybdor shaxslarning jinoiy harakatlarini isbotlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 3 ta, xalqaro jurnallarda 1 ta, ilmiy anjumanlarda 8 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 149 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning o'rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, amaliyotga joriy etilishi, ular bo'yicha nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash,**

**egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarning nazariy-huquqiy tahlili**” deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafni o‘z ichiga oladi. Ushbu bobda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning nazariy-huquqiy asoslari, mazkur jinoyat bilan bog‘liq nazariy tushunchalar, ushbu turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi, ularning sodir etilish usullari hamda tergov qilishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlar, shuningdek, uning yuridik tahlili tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarning tushunchasi hamda ahamiyati”* deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zbek atamashunosligida mavjud bo‘lgan “giyo”, “giyoh”, “giyohvandlik”, “narkotik modda” va “psixotrop moddalar” tushunchalarining etimologik ma‘nolari chuqur tadqiq qilingan. Shuningdek, “giyohvandlik” va “giyovandlik” atamaları o‘zining mazmuniga ko‘ra bir ma‘noni anglatadi, qonunchilikda, xususan O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar” to‘g‘risidagi Qonuni hamda Oliy sud Plenumining “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida “giyohvandlik”, Jinoyat kodeksida (keyingi o‘rinlarda – JK deb yuritiladi) 24 ta holatda “giyohvandlik” va 30 ta holatda “giyovandlik”, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda 20 ta holatda “giyohvandlik” va 9 ta holatda “giyovandlik” atamaları qo‘llanilganligi, tadqiqotchi tomonidan asosli ravishda tanqid qilingan. Shuning uchun ham tadqiqotda asosiy e‘tibor “giyohvandlik” va “giyovandlik” atamalarining mazmuni, ularning umumiy va farqli jihatlari atroflicha o‘rganilib, normativ-huquqiy hujjatlarda “giyohvandlik” atamasidan foydalanish lozimligi bo‘yicha xulosaga kelingan. Mazkur taklif anketa so‘rovida ishtirok etgan respondentlarning 76 foizi tomonidan ma‘qullangan.

Sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklar va qonun hujjatlarida mavjud kollizion holatlarni bartaraf etish, shuningdek jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasiga to‘g‘ri huquqiy baho berish hamda qonun normalari talablarini huquqni qo‘llash amaliyotida bir xilda qo‘llanilishini ta‘minlash maqsadida, Qozog‘iston, Tojikiston, Belarus va boshqa davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, Jinoyat kodeksining giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlardagi og‘irlashtiruvchi holat sifatida bayon etilgan *“ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa”* degan so‘zlarni *“takroran, xavfli retsivist yoki ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa”* degan so‘zlarga almashtirish lozimligi asoslantirilgan.

Birinchi bobning *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ushbu jinoyatning kriminalistik tavsifi va uning asosiy

elementlarini yoritishga alohida e'tibor qaratilgan. Dissertant G'.A. Abdumajidov, M.Q. O'razaliyev, I.F. Gerasimov va R.S. Belkin kabi olimlar tomonidan mazkur jinoyatlarning kriminalistik tavsifi, uning nazariy va amaliy ahamiyati, shu bilan birga bu turdagi jinoyatlarga doir kriminalistik tavsif elementlari va uchraydigan tipik tergov vaziyatlariga oid bildirilgan fikr-mulohazalar bilan ilmiy bahsga kirishib, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga nisbatan o'zining mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va ular bo'yicha tergovga qadar tekshiruv hamda tergov harakatlarini o'tkazishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishni ta'minlash maqsadida, mazkur turdagi jinoyatlar bo'yicha tipik tergov vaziyatlari hamda ular yuzasidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda 2019-2024-yillar davomida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilish holati chuqur tadqiq etilib, bu turdagi jinoyatlar hamda ularni sodir etgan shaxslarning soni yildan yilga ortib borayotganligi salbiy tendensiya sifatida baholangan. Xususan, 2024-yilda 2019-yilga nisbatan 98,5 foizga oshgan. Shu bilan birga, mazkur davrda jami 14251 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ularning 7559 nafari JKning 276-moddasi birinchi qismi bo'yicha, 6692 nafari esa ushbu moddaning ikkinchi qismi bo'yicha javobgarlikka tortilgan.

O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, mazkur turdagi jinoyatlarning 34 foizi 15-30 yoshdagi, 47 foizi 31-49 yoshdagi va 20 foizi 50 yoshdan katta bo'lganlar, 66 foizi o'rta va tugallanmagan o'rta ma'lumotga, 28 foizi o'rta maxsus ma'lumotga va atigi 6 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lganlar, 3 foizi ayollar va 97 foizi erkaklar, shuningdek 25 foizi ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

Jinoyatning predmeti hisoblangan giyohvandlik vositalarining turlari bo'yicha 95,5 foizini marixuana, 2,4 foizini sintetik opioidlar, 1,2 foizini ko'knor va 0,9 foizini boshqa turdagi moddalar tashkil etadi<sup>6</sup>. Shu sababli, tadqiqotchi tomonidan huquqni qo'llash amaliyotida giyohvandlik vositalarining turlari bilan bog'liq real miqdorlardan kelib chiqqan holda bo'lajak huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini tayyorlash va amaliyotchi xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan mavjud o'quv dasturlari hamda mavzuiy rejalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati asoslantirilgan.

Garchi, JKning 276-moddasida "bir guruh shaxslar tomonidan" belgisi alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida qayd etilmagan bo'lsa-da, bu turdagi jinoyatlarning salkam 68 foizi aynan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilayotganligi qonun

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi tomonidan 2025-yil 10-yanvarda taqdim etilgan ma'lumotnoma.

chiqaruvchi tomonidan ularning ijtimoiy xavflilik darajasiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatadi.

O'rganilgan jinoyat ishlari tahlilidan ma'lum bo'ldiki, giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarning 65 foizi "saqlash", 25 foizi "egallash" va faqat 10 foizi "tayyorlash" usullari orqali sodir etilgan<sup>7</sup>. Lekin, normativ-huquqiy hujjatlarda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda "egallash" va "saqlash" tushunchalarining mazmun-mohiyati yetarlicha yoritib berilmaganligi sababli, amaliyot xodimlari tomonidan qabul qilinayotgan protsessual qarorlarda shaxsning qilmishida aynan qaysi obyektiv belgi mavjudligi asoslantirilmayotganligi aniqlangan. Sud-tergov amaliyoti xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov jarayonida respondentlarning 80 foizi tomonidan mazkur fikrlar tasdiqlanganligi mazkur tushunchalarni bir-biridan farqlashga ehtiyojning mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli, tadqiqotchi tomonidan bu tushunchalarni bir-biridan ajratish, ushbu harakatlarni aniq belgilariga ko'ra farqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda huquqni qo'llash amaliyotida ularni to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida "egallash" va "saqlash" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda egallash jinoyati aksariyat holatlarda Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilayotgan bo'lsa-da, lekin bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etish darajasining pastligi, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'limlarida xizmat qilayotgan tezkor vakillarning, shuningdek surishtiruvchi, tergovchilarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarining yetarli emasligi sababli, huquqni qo'llash amaliyotida qo'lga kiritilgan moddaning haqiqiy manbasini yashirish (o'zgartirish) holatlari kuzatilmoqda. Xususan, shaxslarning ko'rsatuvlarida giyohvandlik moddasi jamoat joylaridan topib olinganligi, ariqlarning yon-atrofida o'sib yotganligi yoki boshqa asossiz vajlar keltirilib, jinoyat ishini qisman tugatish amaliyoti keng tarqalganligi dissertant tomonidan tanqid qilingan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar*" deb nomlangan bo'lib, unda dissertant ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha G.A. Abdumajidov, O.D. Allanazarov, V.V. Petrov, B.A. Rajabov, M.A. Rajabova, A.A. Rasulev, A.A. Sisenko, Z.S. Zaripov va boshqa olimlarning isbotlash tushunchasi, doirasi, subyektlari, jinoyatning sodir etish vaqti, joyi usuli, aynan kim tomonidan sodir etilganligi, mazkur jinoyatlarda isbotlash jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar bo'yicha bildirilgan fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishib, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan o'zining mualliflik pozitsiyasini bildirgan.

---

<sup>7</sup> Tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishi materiallari bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar.

Xususan, tadqiqotchi mazkur jinoyatlarni isbotlashda *obyekti bo'yicha*: giyohvandlik vositasining mavjudligi, uning turi, tarkibi va miqdori, davlat nazoratidagi moddalar ro'yxatiga kiritilganligi, uning tibbiy maqsadlarda foydalanishga ruxsat berilgan yoki berilmaganligi, shuningdek moddaning turi va miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-oktyabrdagi 878-son qarori bilan tartibga solinganligi va boshq.; *obyektiv tomoni bo'yicha*: jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rilgan, sodir etilgan vaqti, ya'ni jinoiy harakatlar qachon boshlanib, qachon tugaganligi, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash, egallash hamda saqlash usullari, jinoyatni sodir etish qurollari, vositalari va boshq.; *subyekti bo'yicha*: ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish yoshiga yetganligi, jinoyat sodir etish vaqtida o'z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaganligi va ularni boshqara olganligi, jinoyat aynan ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi, ya'ni shaxsning jinoyat sodir etilgan joyda bo'lganligi va boshq.; *subyektiv tomoni bo'yicha*: ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan sodir etganligi, amalga oshirilgan harakatlarining ixtiyoriyligi, ularni iste'mol qilish uchun mo'ljallangan vositalarning mavjudligi, aniqlangan moddalarni o'tkazish maqsadining yo'qligi (giyohvandlik moddalar faqat iste'mol qilinishini istisno etadigan miqdorda topilmaganligi, bunday vosita yoki moddalar muayyan dozada (o'lchamda) qadoqlanmaganligi, ular tashish yoki jo'natishda maxsus maxfiy joyga yashirilmaganligi, ularni tayyorlash uchun asbob-uskunalarining mavjud emasligi, ekspertizaning aybdor giyohvandligi to'g'risidagi xulosasi va hokazo) va boshqalarga alohida e'tibor qaratish lozimligi asoslantirgan.

Dissertatsiyaning **“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti”** nomli ikkinchi bobida mazkur turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni o'tkazishning o'ziga xosligi, shuningdek ayrim tergov harakatlarini o'tkazishning taktik jihatlari tadqiq etilgan.

Ikkinchi bobning *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi paragrafida M.D. Botayev, M.E. Muminov, B.B. Murodov B.A. Rajabov, N.V. Tyutina, S.A. Novikov va boshqa olimlarning tergovga qadar tekshiruv bosqichida jinoyat tafsilotlarini aniqlash, shaxsiy tintuv va olib qo'yish tergov harakatlarini o'tkazishda ularning protsessual jihatlari, ekspertiza tayinlash, ekspertizasining oldiga hal etishlik uchun savollarni qo'yish, ishtirokchilarning protsessual huquqlarini ta'minlash va tergov harakatlarining natijalarini to'g'ri rasmiylashtirish, hujjatlar va tushuntirishlar talab qilish, to'plangan hamda tekshirilgan hujjatlarning ishga aloqadorligi, ulardagi ma'lumotlarga asoslangan holda jinoyat ishi qo'zg'atishga oid fikr-mulohazalari o'rganilib, ular bo'yicha tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda shaxs(lar)ning dastlabki bergan tushuntirishlarining muhimligi hamda aksariyat holatlarda ular tomonidan berilgan dastlabki ko'rsatuvlarning tergov bosqichida o'zgartirish holatlari keng tarqalganligi va aynan mazkur omil ayrim

holatlarda jinoyat ishi bo'yicha oqlov hukmlarini chiqarilishiga sabab bo'layotganligi uchun tergovga qadar tekshiruvda olinadigan tushuntirish xatlarining namunasi va ularning mazmunida aks ettirilishi lozim bo'lgan holatlar doirasi ishlab chiqilib, mazkur jarayon videoyozuvda to'liq qayd etilishi lozimligi asoslantirilgan.

Shuningdek, so'nggi yillarda tarkibida inson hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan giyohvandlik vositalarini ko'payib borayotganligi inobatga olinib, xodimlarning xavfsizligini ta'minlash, xususan ularning barmoqlari yoki tirnoqlari orasida zaharli moddalar qoldiqlari qolib ketmasligi hamda ashyoviy dalillarga zarar yetishining oldini olish maqsadida ko'zdan kechirish va tintuv (shaxsiy tintuv) tergov harakatlarini faqat maxsus qo'lqoplardan foydalangan holda o'tkazilishi lozim degan xulosaga kelingan.

O'tkazilgan tergov harakatlari davomida olib qo'yilgan yoki taqdim etilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'qolishi, shikastlanishi, bir-biriga qo'shib yoki aralashib ketishining oldini olish maqsadida vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ularni o'rnatilgan tartibda o'rash (qadoqlash) va muhrlash tartibi ishlab chiqilgan.

Tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida jinoyatlarni issiq izidan ochish va qo'lga olingan shaxslarning yonidan topilgan uyali aloqa vositalarining bulutli xotirasida bo'lgan ko'rgazmali reklama (narkograffiti) va zakladka manzillari hamda ish uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tashqi ta'sirlar natijasida o'chirib yuborilishining oldini olish maqsadida uyali aloqa vositalarini zudlik bilan "aviarejim" holatiga o'tkazish va "faradey qop"lariga joylashtirish hamda ular bo'yicha sud kompyuter-texnik ekspertizasini tayinlash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot davomida bugungi kunda tayinlanayotgan sud-kimyoviy ekspertizasining xulosasini olish uchun o'rtacha 10-15 kun vaqt talab etilayotganligi, o'z navbatida ushbu turdagi ekspert xulosasini olmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emasligi hamda tergovga qadar tekshiruvda shaxsni ko'pi bilan faqat 48 soatgacha ushlab turish mumkinligi sababli, tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxslari tomonidan o'zida (kiyimida), yonida yoki uyida giyohvandlik moddasi topilgan shaxsni jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish va qochib ketishining oldini olish maqsadida unga nisbatan qonunga zid ravishda ma'muriy qamoqqa olish jazosi qo'llanilayotganligi tadqiqotchi tomonidan tanqid qilingan. Tadqiqotchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 72 foizi tomonidan bunday amaliyotga barham berish ehtiyojining mavjudligi ko'rsatib o'tilganligini alohida qayd etadi. Shuningdek, bu kabi salbiy holatlarga barham berish maqsadida, huquqni qo'llash amaliyotida ekspres tekshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning natijasi bo'yicha tayyorlangan ma'lumotnoma jinoyat ishini qo'zg'atish va shaxsni ishga gumon qilinuvchi tariqasida jalb etish uchun asos sifatida xizmat qilishi hamda har bir tuman Ichki ishlar bo'limlarini ekspres tekshirish uchun texnik vositalar bilan ta'minlash lozimligi asoslantirilgan. Lekin, shaxsni ishga ayblanuvchi sifatida jalb etish uchun ekspertning xulosasi bo'lishi zarurligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarga to'g'ri huquqiy baho berishda ularning miqdori muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, tergov harakatlari davomida aniqlangan, olib qo'yilgan yoki

oʻrnatilgan tartibda taqdim etilgan moddalarning miqdorini aniq oʻlchash va kelgusida mazkur masala yuzasidan vujudga kelishi mumkin boʻlgan turli xil tushunmovchiliklarga barham berish uchun sud-tergov amaliyotida faqat sertifikatlash talablariga javob beradigan maxsus tarozilardan foydalanilishi va ularni tergov chemodanida boʻlishi lozim boʻlgan jihozlar roʻyxatiga kiritish zarurati asoslantirilgan.

Ushbu bobning *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni oʻtkazish maqsadini koʻzlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bogʻliq jinoyatlar boʻyicha ayrim tergov harakatlarini oʻtkazishning taktikasi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida I.A. Sottiyev va N.Y. Muxammadiyevlarning gumon qilinuvchi bilan soʻroqdan avval ruhiy aloqa oʻrnatish, A.R. Ratinov va M.I. Yenikevlar diqqatni asosiy mavzuda tutib turish va voqeaning muhim jihatlarini aniqlashtiruvchi savollar roʻyxatini shakllantirish, R.S.Samarov va V.G.Glazirinlarning shaxsning bergan koʻrsatuvini toʻgʻri va toʻliq tushunganlikni tekshirish uchun *“Siz aytgan .....ni toʻgʻri tushundimmi?”*, *“Bu vaziyat Sizda qanday his tuygʻularni uygʻotdi?”* kabi maxsus savollardan unumli foydalanish lozimligi ilgari surilgan.

Shuningdek, bu turdagi jinoyatlar doirasida tergov harakatlarini samarali tashkil etish maqsadida, soʻroq qilish jarayonini tayyorgarlik koʻrish, oʻtkazish va rasmiylashtirish bosqichlariga ajratgan holda, har bir bosqichda eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan holatlar tasnifi ishlab chiqilgan.

Xususan, *tayyorgarlik bosqichi*: shaxsning ruhiy-asab kasalliklari va narkologik dispanserda hisobda turishi, giyohvandlik vositalarini isteʼmol qilishi va tobelik darajasi, muqaddam sudlanganligi, maʼmuriy javobgarlikka tortilganligi, ijtimoiy aloqalari haqida maʼlumotlar toʻplash, shuningdek soʻroq jarayonida ishtirok etishi mumkin boʻlgan mutaxassislar doirasini belgilash (psixolog, narkolog, tarjimon va boshq.) va ish holatlaridan kelib chiqqan holda soʻroq qilish rejasini tuzish;

*oʻtkazish bosqichi*: ishning holatlari toʻgʻrisida erkin soʻzlab berish, giyohvandlik moddalarini qayerdan, qanday yoʻl bilan, kimdan, qancha miqdordagi pullar evaziga qoʻlga kiritganligi, qancha miqdorda va qanday maqsadda saqlaganligi, ularni qanday usulda isteʼmol qilishi, moddalarni isteʼmol qilish uchun moʻljallangan maxsus asbob-uskunalarni qayerdan topilganligi, soʻroqni oʻtkazish boʻyicha tuzilgan reja asosida savol-javob qilish, ish holatlaridan kelib chiqqan holda avvalgi berilgan koʻrsatuvlarini oʻqib eshittirish, soʻroq qilinuvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalanishiga imkoniyat yaratish, soʻroq davomida narsalar, hujjatlar va elektron maʼlumotlarni koʻrsatish hamda jinoyat ishida mavjud boʻlgan boshqa dalillardan unumli foydalanish, ayblovga rozi boʻlgan holda, jinoyatning ochilishiga faol koʻmaklashib, jinoyatni fosh etishda tergov organlari bilan hamkorlik qiladigan boʻlsa unga nisbatan ragʻbatlantiruvchi normalarni qoʻllash mumkinligini tushuntirish, soʻroq qilinayotgan shaxsning oʻzi, shuningdek oila aʼzolarining yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini taʼminlash zaruratining mavjudligi va boshqalar;

*yakuniy bosqich*: koʻrsatuvlarni bayonnomada imkon boricha soʻroq jarayonida savol-javob qanday olib borilgan boʻlsa, shunday izchillikda soʻzma-soʻz yozib borish, soʻroq tugaganidan keyin bayonnomani oʻqib chiqish uchun soʻroq qilinuvchiga koʻrsatish yoxud uning iltimosiga koʻra unga oʻqib berish, tergov harakati jarayonini videoyozuvda qayd etish va uni bayonnomaga ilova qilish, bayonnomaga imzo

qo'yilguniga qadar videoyozuvni namoyish qilish va ular bilan bayonnoma o'rtasida jiddiy tafovut bo'lgan hollarda, tafovut sababini aniqlash uchun yangitdan so'roq qilish va boshqalar.

Shu bilan birgalikda, mazkur paragrafda yuzlashtirish, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar tasnifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida bu turdagi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti o'rganilib, bu turdagi qilmishlarga to'g'ri huquqiy baho berish, aybning shakli, sodir etilgan qilmish bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi va uning boshqa jinoyatlardan farqini aniqlash bo'yicha tergov va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazilishiga doir ilg'or tajribalarini milliy huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobning *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi”* deb nomlangan birinchi paragrafida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Singapur, Rossiya, Belarus, Tojikiston, Qozog'iston kabi davlatlarning giyohvandlik vositalariga doir holatlar yuzasidan xabar berish tartibi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar ketma-ketligi o'rganilgan. Shuningdek, bu turdagi jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish, ularni sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash, xususan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni so'roq qilish, dalillarga baho berishga oid tegishli xalqaro hujjatlar talablari tahlil qilingan.

Xususan, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha shaxslarni tergov qilish Germaniyada “Dalillar zanjiri”, Niderlandiyada “Barerli yondashuv”, Yaponiyada “Kuzatuv-hayot”, Singapurda “TDS” (Total Drug Control) konsepsiyalariga asoslanganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolardan giyohvandlik vositalariga oid xabarlarni tezkorlik bilan qabul qilish, jinoiy guruh a'zolarini aniqlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Masalan, Niderlandiyada “Mintaqaviy axborot va ekspert markazi” (РИЭЦ - Региональные информационные и экспертные центры) tashkil etilgan bo'lib, ushbu axborot markazi giyohvandlikka qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, bu markaz Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilayotgan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni “Trojan” tipidagi maxsus dasturiy ta'minot yordamida shifrlangan messenjerlardagi ma'lumotlarni olish, mazkur jinoyatlar bilan shug'ullanuvchi shaxslarni aniqlash, ularni fosh etish faoliyatini amalga oshiradi.

Yaponiya va Singapur kabi davlatlar amaliyotida ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslardan ishonchli ko'rsatuvlar olinishini ta'minlash maqsadida so'roq qilish jarayonida psixolog hamda narkologlarni ishtirok etishi, ko'rsatuvlarni olish jarayoni videoyozuvga olinishi shartligi, shu bilan birgalikda shaxslarning yashash manzilida tintuv tergov harakati maxsus xizmat itlari yordamida amalga oshirilishi majburiy etib belgilangan.

Tadqiqot ishida O'zbekistonda ham Niderlandiyaning "Mintaqaviy axborot va ekspert markazi"dagi (PIЭЛ) kabi shifrlangan messenjerlardagi ma'lumotlarni olish, bu jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslarni aniqlash, ularni fosh etish faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus dastur yaratish taklif etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz huquqni qo'llash amaliyotida Yaponiya, Singapur singari davlatlar tajribasi asosida so'roq jarayonida psixolog hamda narkologlarni ishtirok etishini, tintuv tergov harakatini maxsus xizmat itlaridan foydalangan holda amalga oshirilishini yo'lga qo'yish taklif etilgan.

Uchinchi bobning *"Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish"* deb nomlangan ikkinchi paragrafida tergov amaliyotida bu turdagi jinoyatlar bo'yicha haqiqatni aniqlash, qilmishni to'g'ri malakalash, tergov qilishning samaradorligini oshirishga qaratilgan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarga to'g'ri huquqiy baho berishda ularning miqdori muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, tergov harakatlari davomida aniqlangan, olib qo'yilgan yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilgan moddalarning miqdorini aniq o'lchash va kelgusida mazkur masala yuzasidan vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli xil tushunmovchiliklarga barham berish uchun sud-tergov amaliyotida faqat sertifikatlangan maxsus tarozilardan foydalanish lozimligi va ularni tergov chemodanida bo'lishi shart bo'lgan jihozlar ro'yxatiga kiritish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishi materiallarining tahliliga ko'ra, mazkur jinoyatlarning 68 foizi Internet jahon axborot tarmog'i orqali sodir etilayotganligi sababli tadqiqotchi tomonidan Internetning ijtimoiy tarmoqlari, xususan "Telegram", "Instagram", "Odnoklassniki" va "Facebook" platformalardan foydalangan holda giyohvandlik vositalarini inson omilisiz aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligini inobatga olib, onlayn tartibda giyohvandlik vositalarini sotayotgan ijtimoiy tarmoqlarning profillarini aniqlash hamda ularni fosh etish bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari tomonidan o'tkazilishi lozim bo'lgan harakatlar algoritmi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotida shaxsning fotosuratdagi barmoq izlari orqali uning shaxsini aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda reklama sifatida inson qo'lida aks ettirilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning fotosurati namoyish etilgan har bir holat yuzasidan majburiy tartibda daktiloskopiya ekspertizasini tayinlash amaliyotini yo'lga qo'yish va uning xulosalaridan jinoyat ishida dalil sifatida foydalanish lozim degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya kabi davlatlar tajribasi asosida shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan yoki qilmaganligi, shuningdek uning iste'mol qilgan moddalarining turlari va ularni iste'mol qilish o'rtasidagi vaqt oralig'ini aniqlash maqsadida, o'rnatilgan tartibda gumon qilinayotgan shaxsning soch tolalaridan namuna olish va ular bo'yicha sud-kimyoviy ekspertiza tayinlash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. Mazkur taklif so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 85 foizi tomonidan ma'qullangan.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert kriminalistika bosh markazida o'tkazilayotgan sud-kimyoviy ekspertiza tadqiqotlari orqali neytral modda (to'ldiruvchi) bilan aralashmada bo'lgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni aniqlash hamda aniqlangan moddalarning miqdoriga to'liq oydinlik kiritish mumkinligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya xulosasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash va saqlash jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish bilan bog'liq nazariy xulosalar va bu borada qonunchiligimizda mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etildi:

**I. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishga doir nazariy bilimlarni boyitishga qaratilgan xulosa va tavsiyalar:**

1. Nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda "tayyorlash", "egallash" va "saqlash" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

2. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi ishlab chiqilgan.

3. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va ular bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov o'tkazishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishni ta'minlash maqsadida, mazkur turdagi jinoyatlar bo'yicha tipik tergov vaziyatlari hamda ular yuzasidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi) ishlab chiqilgan.

4. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa

harakatlar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha sud-kimyoviy ekspertizasini tayinlashda ekspertlar oldiga qo'yilishi mumkin bo'lgan namunaviy savollar ishlab chiqilgan.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llanilgan "giyovandlik" degan so'zni "giyohvandlik" degan so'z bilan almashtirish zarurati asoslantirilgan.

6. Sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklar va qonun hujjatlarida mavjud kollizion holatlarni bartaraf etish, shuningdek jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasiga to'g'ri huquqiy baho berish hamda qonun normalarining talablarini huquqni qo'llash amaliyotida bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida Jinoyat kodeksining giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlardagi og'irlashtiruvchi holat sifatida bayon etilgan "ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa" degan so'zlarni "takroran, xavfli retsidivist yoki ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa" degan so'zlarga o'zgartirish lozimligi asoslantirilgan.

## **II. Qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasi birinchi qismi 7-bandini quyidagi tahrirda bayon etish:

*giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning turini, miqdorini, shuningdek kimyoviy tarkibini, qo'shimcha aralashmalarining mavjudligini.*

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasi birinchi qismi 6-bandini quyidagi tahrirda bayon etish:

*tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka hamda giyohvandlik yoki zaharvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini.*

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 26-iyundagi "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning turlari va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 288-son qarorining 10-bandi ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish:

*"Tekshirishlarni o'tkazishda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning turlari faqat tekshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda sarflanishi mumkin. Ekspertiza tugagach ushbu tekshirish obyektlari, agar ular to'liq sarflanmagan bo'lsa, ekspertizani amalga oshirgan ekspertiza muassasasi mas'ul xodimi tomonidan 15 kun muddat ichida DXXning maxsus omboriga topshirilish kerak. Giyohvandlik vositasi, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirish dalolatnomasi, ko'zdan kechirish bayonnomasi va boshqa ilova hujjatlari surishtiruvchi, tergovchiga ish hujjatlariga qo'shib qo'yish uchun 24 soat ichida yuborilishi shart".*

## **III. Huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:**

1. Internetning ijtimoiy tarmoqlari, xususan "Telegram", "Instagram", "Odnoklassniki" va "Facebook" platformalardan foydalangan holda giyohvandlik moddalarni inson omilisiz aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi inobatga

olinib, onlayn tartibda giyohvandlik vositalari sotilayotgan ijtimoiy tarmoqlarni aniqlash va ularni fosh etish bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari tomonidan o'tkazilishi lozim bo'lgan harakatlar algoritmi ishlab chiqilgan.

2. So'nggi yillarda tarkibida inson hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ko'payib borayotganligi inobatga olinib, xodimlarning xavfsizligini ta'minlash, xususan ularning barmoqlari yoki tirnoqlari orasida zaharli moddalar qoldiqlari qolib ketmasligi hamda ashyoviy dalillarga zarar yetishining oldini olish maqsadida ko'zdan kechirish va tintuv (shaxsiy tintuv) tergov harakatlarini faqat maxsus qo'lqoplardan foydalangan holda o'tkazilishi shartligi asoslantirilgan.

3. O'tkazilgan tergov harakatlari davomida olib qo'yilgan yoki taqdim etilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'qolishi, shikastlanishi, bir-biriga qo'shilib yoki aralashib ketishining oldini olish maqsadida vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ularni o'rnatilgan tartibda o'rash (qadoqlash) va muhrlash tartibi ishlab chiqilgan.

4. Jinoyatlarni issiq izidan ochish va qo'lga olingan shaxslarning yonidan topilgan uyali aloqa vositalarining bulutli xotirasida bo'lgan ko'rgazmali reklama (narkograffiti) va zakladka manzillari hamda ish uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tashqi ta'sirlar natijasida o'chirib yuborilishining oldini olish maqsadida uyali aloqa vositalarida zudlik bilan "aviarejim" holatiga o'tkazish va "faradey qop"lariga joylashtirish hamda ular bo'yicha sud kompyuter-texnik ekspertizasini tayinlash zarurati asoslantirilgan.

5. Bugungi kunda tayinlangan sud-kimyoviy ekspertizalarning xulosasini olish uchun o'rtaacha 10-15 kun vaqt talab etilayotganligi, o'z navbatida ushbu turdagi ekspert xulosasini olmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emasligi hamda tergovga qadar tekshiruvda shaxsni ko'pi bilan faqat 48 soatgacha ushlab turish mumkinligi inobatga olinib, huquqni qo'llash amaliyotida ekspres tekshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ekspres tekshiruv natijasi bo'yicha tayyorlangan ma'lumotnoma jinoyat ishini qo'zg'atish va shaxsni ishga gumon qilinuvchi tariqasida jalb etish uchun asos sifatida xizmat qilishi hamda har bir tuman Ichki ishlar bo'limlarini ekspres tekshirish uchun texnik vositalar bilan ta'minlash lozimligi asoslantirilgan.

6. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar bilan bog'liq jinoyatlarga to'g'ri huquqiy baho berishda ularning miqdori muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, tergov harakatlari davomida aniqlangan, olib qo'yilgan yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilgan moddalarning miqdorini aniq o'lchash va kelgusida mazkur masala yuzasidan vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli xil tushunmovchiliklarga barham berish uchun, sud-tergov amaliyotida faqat sertifikatlariga ega bo'lgan maxsus tarozilardan foydalanish lozimligi va ularni tergov chemodanida bo'lishi shart bo'lgan jihozlar ro'yxatiga kiritish zarurati asoslantirilgan.

7. Ijtimoiy tarmoqlarda reklama sifatida inson qo'lida aks ettirilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning fotosurati namoyish etilgan har bir holat yuzasidan shaxsning barmoq izlari orqali uning shaxsini aniqlash maqsadida majburiy tartibda daktiloskopiya ekspertizasini tayinlash amaliyotini yo'lga qo'yish zarurati asoslantirilgan.

8. Shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan yoki qilmaganligi, shuningdek iste'mol qilgan moddalarning turlari va vaqt oralig'ini aniqlash maqsadida, o'rnatilgan tartibda uning soch tolalaridan namuna olish va ular bo'yicha sud-kimyoviy ekspertiza tayinlash amaliyotini joriy etish zarurati asoslantirilgan.

9. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tintuv (shaxsiy tintuv) tergov harakatini o'tkazishda kinologiya xizmati imkoniyatlaridan unumli foydalanish zaruriyati asoslantirilgan.

10. O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert kriminalistika bosh markazida o'tkazilayotgan sud-kimyoviy ekspertiza tadqiqotlari orqali neytral modda (to'ldiruvchi) bilan aralashmada bo'lgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni aniqlash hamda aniqlangan moddalarning miqdoriga to'liq oydinlik kiritish mumkinligi asoslantirilgan.

11. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "*Foiz nisbati*" metodikasi yordami bilan aralashmada bo'lgan turli xildagi giyohvandlik vositalari va(yoki) psixotrop moddalar miqdorini bir-biriga qo'shib hisoblash va ularning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda shaxs(lar)ni javobgarlikka tortish masalasini hal etish zarurati asoslantirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА  
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

---

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**СУЮНОВ ШАХЗОД ШОВКАТ УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ,  
СВЯЗАННЫХ С НЕЗАКОННЫМ ИЗГОТОВЛЕНИЕМ,  
ПРИБРЕТЕНИЕМ, ХРАНЕНИЕМ И ДРУГИМИ ДЕЙСТВИЯМИ  
С НАРКОТИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ, ИХ АНАЛОГАМИ ИЛИ  
ПСИХОТРОПНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ БЕЗ ЦЕЛИ СБЫТА**

**12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика,  
оперативно-розыскное право и судебная экспертиза**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертация доктора философии (PhD) по юридическим наукам**

**Ташкент– 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.2.PhD/Yu1110.**

Диссертация выполнена в Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (<https://akadmvd.uz>) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Алиев Шухрат Хасанович</b> доктор философии по юридическим наукам, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Саидов Бахром Анварович</b> доктор юридических наук, профессор <b>Кадирова Мохигул Хамитовна</b> доктор юридических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Следственный департамент при Министерстве внутренних дел Республики Узбекистан</b>

Защита диссертации состоится 26 июня 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан. (Адрес: 100197, г. Ташкент, ул. Интизор, 68. Тел./факс: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (зарегистрирована под № AD1586). (Адрес: 100197, г.Ташкент, ул.Интизор, 68. Тел.: (+99871) 265-22-52.

Автореферат диссертации разослан 14 июня 2025 г.

(Протокол от 14 июня 2025 года, реестровый № 19).

**А.С. Турсунов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

**А.Д. Хусанов**  
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

**Ш.А. Кулматов**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире представляется объективной необходимостью борьба с преступлениями, связанными с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ, обеспечение здоровья людей путем формирования в обществе иммунитета против этого порока. Согласно Всемирному докладу ООН о наркотиках за 2024 год, каждый 18-й человек в возрасте 15-64 лет в течении последних 12 месяцев хотя бы один раз употреблял наркотические средства или психотропные вещества<sup>1</sup>. Число употребляющих наркотические средства за последние 10 лет возросло на 23 % и достигло 296 млн. лиц<sup>2</sup>. В США 37 %, в Канаде 30 %, в Гане 27 % молодежи страдают хронической наркоманией<sup>3</sup>. Это требует разработки новых подходов к исследованию новых видов наркотических средств, их подпольного распространения (закладки) без человеческого фактора путем использования социальных сетей Интернет, а также повышения качества расследований транснациональной организованной преступности в сфере наркопреступлений.

Во всем мире противодействие преступлениям, связанным с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ, в том числе их незаконным изготовлением, приобретением, хранением и иными действиями без цели их сбыта, стало актуальным объектом научных исследований. Так, все более важное значение приобретают исследования, направленные на выявление научно обоснованных решений проблем касательно определения наиболее эффективных подходов по пресечению незаконного оборота наркотических средств, их аналогов или психотропных веществ, установления круга обстоятельств, подлежащих доказыванию по данному виду преступлений, совершенствования тактики проведения следственных действий в досудебном производстве, обеспечения безопасности лиц, сотрудничавших со следствием в раскрытии и расследовании совершенных преступлений.

В нашей республике осуществляется ряд реформ по выявлению и расследованию преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. В частности, в Национальной стратегии по борьбе с наркоманией и наркопреступностью в Республике Узбекистан на 2024 — 2028 годы<sup>4</sup> поставлен ряд задач, таких как пресечение новых способов незаконного оборота, особенно через сеть Интернет, наркотических средств, психотропных веществ, развитие комплекса следственных мер, применение специальных технических средств для количественного определения наркотических средств. Это свидетельствует об актуальности исследования в нашей стране теоретических и практических аспектов расследования преступлений, связанных с незаконным изготовлением, приобретением, хранением и иными действиями с наркотическими средствами, их аналогами или психотропными веществами без цели их сбыта.

<sup>1</sup> <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/world-drug-report-2024.html>

<sup>2</sup> [https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23\\_Exsum\\_fin\\_SP.pdf](https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23_Exsum_fin_SP.pdf)

<sup>3</sup> <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/drug-use-by-country>

<sup>4</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 06.05.2024 г. № УП-73 “О стратегических мерах по устранению негативного влияния на здоровье населения и генофонд нации наркотических средств и психотропных веществ посредством пресечения их незаконного оборота в Республике Узбекистан” <https://lex.uz/docs/6912475>

